

TA'LIMDA TABIIY FANLARNING FANLARARO INTEGRATSIYASI

INFORMATIKA FANI O'QITUVCHILARINING MALAKA OSHIRISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Nishonov Akmal Obidovich

Farg'ona viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ta'limning raqamli transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, malaka oshirish jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish masalalari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *raqamlashtirish, intellektual tizimlar, virtual ta'lim texnologiyalari, interaktiv panellar va zamonaviy dasturiy ta'minot, raqamli laboratoriyalar, adaptiv individuallashtirish, modernizatsiya, globallashtirish, tizimlashtirish*

Ta'limning raqamli transformatsiyasi sharoitida informatika fani o'qituvchilaridan innovatsion texnologik taraqqiyotga moslashish, raqamli ta'lim makonida o'zning pedagogik faoliyatini tashkil eta olish va ta'lim sifatini ko'tarish, o'qituvchilarning yoshlarga ta'lim va tarbiya berishdagi mas'uliyatini, o'z-o'zini rivojlantirish va uzluksiz kasbiy rivojlanishni talab etadi. Bu esa, o'z navbatida pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi oldiga "pedagog kadrlarni kompetensiyalarga asoslangan va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan metodikalar bo'yicha o'qitish amaliyotini joriy qilish" kabi yangi vazifalarni qo'yimoqda. Mazkur talablar asosida xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish, pedagog kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini raqamli ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish, pedagog kadrlarning kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish, kompetentlik sifatlari va kreativlik qobiliyatlarini izchil rivojlantirib borish dolzarb ahamiyatga ega.

Ilg'or rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim amaliyotida pedagoglarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish, informatika o'qituvchilarini fanni o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar, intellektual tizimlar, virtual ta'lim texnologiyalari, interaktiv panellar va zamonaviy dasturiy ta'minot, raqamli laboratoriyalardan foydalanishga kasbiy tayyorlash sohasida keng ko'lamli tadqiqotlar amalga oshirilmogda.

Mamlakatimizda keyingi yillarda pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini zamonaviy talablarga, jahon standartlariga moslashtirish, ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish, ularni raqamli ta'lim muhitida faoliyat ko'rsatishga kasbiy metodik tayyorlashga katta ahamiyat qaratilmogda. Bu esa, xalq ta'limi

TA'LIMDA TABIIY FANLARNING FANLARARO INTEGRATSIYASI

xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish, o'qituvchilarda kasb mahorati va malaka saviyasining doimiy o'sishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, zamonaviy talablarga muvofiq qayta tayyorlash va muntazam ravishda malaka oshirib borishning samarali mexanizmlarini joriy etish, o'zini-o'zi rivojlantirish orqali informatika o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning raqamlashtirilgan tizimini joriy etishning metodik shart-sharoitlarini ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

Malaka oshirishning asosiy maqsadi malaka darajasiga talablarning kuchayishi va kasbiy muammolarni hal qilishning zamonaviy usullarini o'zlashtirish zarurati munosabati bilan mutaxassislarning nazariy va amaliy bilimlarini yangilashdir.

Malaka oshirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- kompensatorli (yordamchi), ya'ni oldingi ta'limdagi kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish;

- adaptiv, ya'ni tez o'zgaruvchan tashqi sharoitlarga, yangi kasbiy talablarga moslashishga yordam berish, olingan bilimlarni, shu jumladan yangi bilimlarni qo'llash;

- qayta malaka oshirish, ya'ni kasbga qo'yiladigan yangi, ortib borayotgan talablarga mos keladigan darajada malaka oshirish;

- rivojlantirish, ya'ni shaxsning ijodiy salohiyatini boyitish va doimiy ravishda o'z-o'zini takomillashtirish va boyitish.

Bugungi kunda ta'limning uzluksizligi tamoyilini amalga oshirish orqali o'qituvchilar malakasini oshirish davlat va nodavlat qo'shimcha ta'lim muassasalari tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Hozirgi kunga qadar Informatika o'qituvchilarining malakasini oshirish ham asosan malaka oshirish bo'yicha ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasida (akademiya, institut, markaz, fakultet, kurslarda) o'qitish shaklida asosiy ishdan ajralgan holda amalga oshiriladi.

Zamonaviy texnik vositalar, aloqa tizimlarining faol rivojlanishi masofaviy ta'limda tarmoq kompyuter texnologiyalariga asoslangan zamonaviy masofaviy ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanish imkonini berdi. Shunday qilib, masofaviy ta'lim kerakli o'quv materiallarini nisbatan tez olishlari, o'qituvchi bilan real vaqt rejimida muloqot qilishlari mumkin. So'nggi paytlarda videokonferensiya va web-seminarlar kabi dars turlari faol qo'llanilmoqda. Biroq o'qituvchilarning masofadan turib dars berishga tayyorligi hali ham past.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi masofaviy ta'lim va aralash ta'lim imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Tarmoqli kompyuter texnologiyalari asosida tinglovchi va professor-o'qituvchining o'zaro hamkorligi kunduzgi ta'limning samarali shakllaridan faol foydalanish imkonini beradi, ya'ni

TA'LIMDA TABIIY FANLARNING FANLARARO INTEGRATSIYASI

guruhlarda ishlash, tinglovchilarning fikr va tajriba almashishlarini o'z ichiga oladi.

Hulosa qilib aytadigan bo'lsak, informatika o'qituvchilari malakasini oshirish jarayoni ta'limni axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati bilan bevosita bog'liq holda amalga oshiradi. Ta'limni axborotlashtirish jarayonining barcha bosqichlarida mehnat qilayotgan pedagog kadrlar malakasini oshirish va metodik ta'minlash asosiy vazifalardan biri bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi PF-5313-sonli "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
2. Abdukadirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti (monografiya). – T.: «Fan», 2009.
3. Askarov A.D. Xalq ta'limi xodimlari malakasini masofadan oshirish tizimini takomillashtirish // pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: 2017. -52 b